

O'ZBEKISTONDA O'QUV LEKSIKOGRAFIYASI ISTIQBOLLARI XUSUSIDA.

Ahmedova Matluba Abdisalom qizi.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti 2-kurs magistranti

Bugun biz jahoning ko'plab rivojlangan davlatlarida yoshlarga berilayotgan ta'limning samarali amalga oshirilishi uchun ta'lif tizimiga turfaxil yondashuvlar bo'layotgani, zamonaviy innovatsion texnologiyalar, kompyuter texnologiyalari, shular qatorida turli mavzu va janrdagi o'quv lug'atlaridan keng foydalanilayotganligi haqida ko'p gapi rayapmiz. O'zbekistonda ham ta'lif tizimi jadal rivojlanishi uchun, farzzandlarimiz, o'quvchilarimiz biz kutgandanda yuqori darajalarga ko'tarilishi uchun biz ham eng ilg'or o'qitish usullari va vositalaridan to'g'ri foydalanishimiz va bu faoliyatni o'quvchilarimizga ham singdirib borishimiz zarur. Shu o'rinda bir jihat, ya'ni milliyligimizni unutib qo'ymaslikka, har doim darslik yaratamizmi, lug'at yaratamizmi milliy ruhimiz ufurib turishiga e'tibor qaratishimiz lozim. Zero, "Bugungi globallashuv davrida har bir xalq, har qaysi mustaqil davlat o'z milliy manfaatini ta'minlash, bu borada avvalo o'z madaniyatini, azaliy qadriyatlarini, ona tilini asrab-avaylash va rivojlantirish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratishi tabiiydir" [1.B-1]. Millatni savodli qilish yosh avlodga bilim va tarbiya berishdan boshlanadi. Yosh bola so'zlayotgan har bir jumlasini muloqot jarayonida to'g'ri topib qo'llashga harakat qilishi va bu ishi orqali kattalardan rag'batlantirish kutishi pisixologlar tomonidan ko'p bor aytilgan. Bola og'zaki nutqini to'g'ri shakillantiraolishi uchun esa albatta har bir yosh davriga mos, turli mavzudagi o'quv lug'atlarining kitob holida nashr qilinishi va kompyuter va mobil ilovalar tarzida ham yaratilishi juda katta yordam beradi. Davlatimiz rahbari ham "... ona tilimizni jozibali va qiziqarli tarzda taqdim etish, buning uchun o'zbek tilining kompyuter dasturlarini, onlayn darsliklar, elektron lug'atlarni yaratish kerak" deb ta'kidlagan edilar. [2.B-1]. Bunday lug'atlarga nafaqat kichik yoshdagagi o'quvchilar, balki oliy ta'lif muassasasi talabalari, umuman har qanday soha vakillarining ehtiyoji juda kuchli. Chunki har bir sohaning o'ziga xos terminlari mavjud bo'lib soha vakillarida har doim muayyan atamaning aniq izohini bilishga ehtiyoji bo'ladi. Shuning uchun ham bugun tilshunoslik fani oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biri fanning bir tarmog'i bo'lgan amaliy leksikografiya sohasini rivojlantirish, natija esa barcha yoshdagagi va sohalardagi foydalanuvchilar uchun qulay va mos bo'lgan o'quv lug'atlarini yaratish bo'lishi kerak. Bu masalalarga mashhur tilshunos olim Hamid Ne'matov birinchilardan bo'lib e'tibor qaratgan edilar. Hamid Ne'matov Askar G'ulomov bilan





hamkorlikda yozgan va 1995 yilda chop etilgan “Ona tili ta’limi mazmuni” kitobida maktab o‘quvchilari uchun ona tili darsliklariga yordamchi qo’llanma sifatida o‘quv lug‘ati ham bo‘lishini takidlagan. Kitobda o‘quv lug‘atlarining ro‘yxati ham berilgan. Eng ahamiyatlisi shundaki, ushbu ro‘yxatning eng avvalida “O‘zbek tilining o‘quv izohli lug‘ati” qayd etilgan[9.B-46]. Buning sababi o‘quvchi darsliklarda uchraydigan har bir so‘zning qachon ishlatalishi va qanday ma’noda qo’llanilishini dars jarayonida o‘rganib borsa hayotdagи har xil vaziyatlarga tushganda qiyalmsdan o‘z fikirlarini mazmunli, teran ifodalay oladi. Buning uchun o‘quvchining yonida har bir darsda mavzuviy o‘quv izohli lug‘atlari bo‘lishi kerak.

Mamlakatimizda til siyosati borasida olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlar nafaqat o‘zbek tili taraqqiyotida yangi davr boshlanishi, balki tilshunoslik sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlaringin ham yangi bosqichga ko‘tarilishiga sabab bo‘ldi. Tilshunoslikda o‘quvchilarining ijodiy, mantiqiy, obrazli va assotsiativ tafakkur qilish, tafakkur mahsulini og‘zaki va yozma shakllarda nutq sharoitiga mos ravishda to‘g‘ri va ravon ifodalash kompetensiyalarini rivojlantirish, mustaqil va ijodiy fikrlay oladigan, o‘zgalar fikrini anglaydigan – muloqot va nutq madaniyati rivojlangan shaxsni kamol toptirish uchun xizmat qiladigan amaliy tadqiqotlarga e’tibor kuchaydi[7.B-4].

Bugun leksikografiya fani oldida turgan vazifalarni bundan o‘n yillar oldin professor H.Ne’matov “Axborot asrinining tilshunoslikka talabi” deb nomlangan maqolasida “Kompyuter texnologiyasi bilan uzviy bog‘liq va sun‘iy intellekt ibtidosi bo‘lgan axborot asri tilshunoslik oldiga ikki – biri ommaviy tarzda amalga oshirilayotgan, ikkinchisi amalga oshirilishi zarur bo‘lgan – vazifani qo‘yadi. Amalga oshirilayotgan vazifaning o‘zi ham ikki turli. Ulardan biri axborot bazasini, ya’ni Arastu bobomizdan boshlab shu kungacha jahon tilshunosligida yaratilgan muhim tadqiqotlarni, lug‘at-u, grammatika-yu, darsliklarning elektron variantlarini yaratib, erkin foydalanimishini keng yo‘lga qo‘yish. Ikkinchisi esa, lingvistik (lisoniy) korpuslar, ular asosida WordNetlarning xilma-xil turlarini yaratish va ommalashtirish, til birliklarining nutqiy voqelanishlari chastotasi, lisoniy birliklarning bir-birini almashtira olishi, ayni bir xil qurshovda kela olishi va uning oqibatlari ... kabi hodisalarni empirik tavsif usullarida o‘rganish va natijalarini ommalashtirish kabi hozirgi kunda korpus va kompyuter lingvistikasi G‘arbda katta tezlik, o‘zimizda asta-sekinlik bilan amalga oshirilayotgan ishlardir”[8.B-9-12] deganda XXI asr o‘zbek tilshunosligi, xususan, leksikografiyasi oldida turgan vazifalarni aniq belgilab bergen edilar. Tilshunoslik oldiga qo‘yilgan bu vazifalar bugun oz bo‘lsada bajarilganini ko‘rishimiz mumkin. Misol tariqasida o‘zbek tilida yaratilgan umumiy elektron lug‘atlar, balki o‘quv elektron lug‘atlarni ham uchratish mumkin. Xususan,



software.uz Dasturchilar dasturiy mahsulotlar milliy katalogi[3], Q.Qosimovning elektron lug'atlar bazasi[4], youtube.com[5], translatos Onlayn lug'at va tarjimon[6] tarmoqlarida o'zbek tilida yaratilgan bir necha nomdagi elektron lug'atlar joylanganiga guvoh bo'lamiz: "Inglizcha-o'zbekcha va o'zbekcha-inglizcha lug'at", "Mening birinchi lug'atim (o'zbek, ingliz, rus, fransuz, nemis va qoraqalpoq tillari)" onlayn tarjima lug'atlari, "LangIN – inglizcha-o'zbekcha lug'at va tarjimon", ruscha-o'zbekcha, o'zbekcha-inglizcha tiplardagi ovozli lug'atlar zamonaviy lug'atlarga misol bo'ladi. Ammo bu natijalar juda kamlik qiladi va o'quv lug'atlariga qo'yiladigan jahon standartlariga to'laqonli javob berolmaydi. Bizga ma'lumki, leksikografiyaning rivojlanishi boshqa fanlarning, xususan, informatika va tilshunoslik taraqqiyoti bilan bog'liq. Jamiyat a'zolarining ijtimoiy-siyosiy, madaniy taraqqiyoti, shuningdek, falsafiy dunyoqarashning o'zgarishi ham leksikografiya taraqqiyotiga zamin hozirlaydi, leksikografik semantizatsiya – mavjud izohli lug'atlardagi so'zlar izohiga yangicha yondashuvni taqozo qiladi. O'zbekistonda o'quv leksikografiyasi istiqbollari quyidagi tamoyillarga asoslanishi kerak.

1) zamonaviylik – jahon o'quv leksikografiyasining so'nggi yutuqlariga asoslanib o'quv lug'atlarining yangi avlodi – bosma va elektron shakldagi lug'atlarni tuzish, o'quv lug'atlarining lingvometodik ta'minotini zamon talablariga moslashtirish;

2) takomillashganlik – axborot texnologiyalari, jumladan, kompyuter lingvistikasi sohasi yutuqlariga tayanib mavjud bosma o'quv lug'atlarini elektronlashtirish, ta'limning turli bosqichlari, xususan, yuqori sinf o'quvchilari, oliy ta'lim tizimida tahsil oluvchilar uchun turli fanlar bo'yicha terminologik lug'atlar, o'quv ensiklopediyalar, katta o'quv lug'atlarini yaratish, izoh tipidagi lug'atlarda leksikografik semantizatsiyani zamon talablari nuqtai nazaridan qayta ko'rib chiqish;

3) kompyuterlashganlik – umumiylug'atlar negizida elektron lug'at turlarini boyitish, turli elektron qurilmalarda ishlashga mo'ljallangan interaktiv lug'atlar, korpus lug'atlarni tuzish; imlo, talaffuz meyorlari, tarjima, tilning turli leksik sistemalar (sinonimlar, antonimlar, paronimlar, omonimlar, graduonimlar, uyadosh so'zlar kabi)ini o'rgatishga xizmat qiluvchi mukammal mobil ilovalarni yaratish; internet saxifalarida bolalar uchun mo'ljallangan elektron o'quv lug'atlarining maxsus saytlarini yaratish;

4) leksikografik kompetentlik – foydalanuvchilarda o'quv lug'atlarining zamonaviy ko'rinishlari bilan ishlash ko'nikmasi, lug'atlar bilan ishlash samaradorligini oshirish maqsadida leksikografik kompetentlikni shakllantirish. Bu o'z o'zidan kompyuter savodxonligi bilan ham bog'liq. Chunki lug'atlarni kitob holatida chop etishdan kora elektron lug'atlarni yaratish va keng foydalanuvchilar



uchun taqdim etish ham ancha qulay hisoblanadi. Mobil ilovalar sifatida yaratilgan lug'atlar yoshlarda leksikografik kompitentlikni rivojlanishga ancha yordam beradi.

Ushbu vazifalarning amalga oshilishi mamlakatimizda axborot texnologiyalari taraqqiyoti, kompyuter lingvistikasi, korpus lingvistikasi, lingvodidaktika, lingvopedagogika, pedagogik leksikografiya kabi fanlarning rivoji bilan bog'liq[7.B-179].

Xulosa qilib aytganda o'quv leksikografiyasini kelajagi porloq bo'lishi uchun avvalo leksikografiya rivojlangan davlatlarning nazariy va amaliy bilim- tajribalarini o'zlashtirish, kompyuter lingvistikasi, korpus lingvistikasi, amaliy leksikografiya fanlari, hamda leksikografik kompitentlikni rivojlantirish, o'quv leksikografiyasini nazariy va amaliy soha sifatida tizimli yo'lga qo'yilishi zarurdir. Bundan tashqari lug'at yaratish va nashr ettirish ishlari uchun moliyalashtirish masasi ham eng muhim sabablardan biri bo'lib turipti.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 21 октябрдаги ПФ-5850-сонли “Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги фармони // www.lex.uz
2. Мирзиёев Ш.М. Миллий ўзлигимиз ва мустақил давлатчилигимиз тимсоли. (Ўзбек тилига давлат тили мақоми берилганлигининг ўттиз йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги нутқ) // “Халқ сўзи” газетаси. – Тошкент, 2019. – № 218.
- 3.[Электрон ресурс]. URL: <http://software.uz/uz/software/cat?id=35>
- 4.[Электрон ресурс]. URL: <https://qobiljon.uz/index.php/uz/elektron-dasturlar/elektron-lug-atlar>
- 5.[Электрон ресурс]. URL: <https://www.youtube.com/watch?v=VTZ2mKI0qnI>
- 6.[Электрон ресурс]. URL: <http://www.translatos.com/uz/>
- 7.Бахриддинова Б.М. Ўзбекистонда ўкув луғатчилиги: лингвистик асослари, тарихи ва истиқболлари: Филол.фан... доктори (DSc) дисс. – Самарқанд. 2020., –252 б.;
- 8.Неъматов Ҳ., Турсунова О. Ахборот асрининг тилшуносликка талаби // Филология масалалари: Илмий ва илмий-методик маколалар тўплами. – Тошкент: Фан, 2013. – Б.9-12
- 9.G'ulomov A.,Ne'matov H. Ona tili ta'limi mazmuni. (Ona tili o'qituvchilar uchun metodik qo'llanma)-Toshkent:O'qituvchi,1995. -46b.

